

USMON AZIM SHE'RIYATIDA QO'LLANILGAN MUROJAAT
BIRLIKLARI VA ATOV GAPLAR

Xomidova Munavvara Abduvahobovna

Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada murojaat birliklari va atov gaplarning qanday qo'llanish, ularning she'riyatda ifodalanishi Usmon Azim she'riyati orqali ko'rsatib o'tilgan. Atov gaplar va murojaat birliklari turlari misollar bilan keng yoritilgan. Usmon Azimning she'rlarida atov gaplar va murojaat birliklarining o'rni va ularning emotsional ekspressivligi izohlangan.*

Kalit so'zlar: *atov gaplar, murojaat birliklari, nutqiy ekspressiv birliklar, emotsional vositalar, she'riy kommunikativ vositalar.*

Kirish. Usmon Azim (asl ism-sharifi: Azimov Usmonqul; 1950-yil 13-avgust; Boysun tumani) — O'zbekiston xalq shoiri (2000), dramaturg. Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1972). Respublika radiosida muharrir, katta muharrir va bosh muharrir o'rinbosari (1976—1989), O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib (1989—1990). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida sektor mudiri, yetakchi konsultant, Prezidentning Davlat maslahatchisi (1991—1994). 2003-yildan O'zbek milliy akademik drama teatrida adabiy emakdoshdir. Usmon Azim 1950-yilda Surxondaryo viloyati Boysun tumanining Gaza qishlog'ida tug'ilgan. Ilk kitobi — „Insonni tushunish“ (1978). Shundan so'ng shoirning „Holat“ (1979), „Oqibat“ (1980), „Ko'zgu“ (1983), „Surat parchalari“ (1985), „Dars“ (1985), „Ikkinchi aprel“ (1987), „Baxshiyona“ (1989), „G'aroyib ajdarho“ (1990), „Uyg'onish azobi“ (1991), „G'ussa“ (1994), „Uzun tun“ (1994), „Bor ekanda, yo'q ekan“ (1995), „Saylanma“ (1995), „Kuz“ (2001) kabi she'riy va „Jodu“ (2003), „Adibning umri“ (2010), „So'ngso'zlar“ (2020) nasriy to'plamlari; nasr va nazmdan iborat „Kollaj“ (2018) nasriy to'plamlari nashr etilgan.

Asosiy qism. Ma'lumki, murojaat shakli va u ifodalaydigan muayyan davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsulidir. So'zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday onn egallashi, uning yoshi, jinsi, lavozimi, kasbi, mansabiga qarab murojaat shakllari o'zgarib boradi. Shu bilan birga murojaat shakli xalqning o'zligini anglashi qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezonlardan bindir. Insonlar suhbatlashayotganda nafaqat o'z fikr va tuyg'ularini anni tushuntirish, yetkazish, balki bir vaqtning o'zida boshqasiga bo'lgan munosabatini, o'zining jamiyatdagi ijtimoiy belgilarini va suhbatdagi o'z o'mini ham belgilaydi. Muloqot mobaynida suhbatdoshlar ma'lum bir ijtimoiy qoidaga amal qilgan holda, o'zaro murojaat shakllarini tanlay olishi va o'z o'mida ishlata olishi muhim hisoblanadi. Muloqot mobaynida suhbatdoshlar ma'lum bir qoidalarga amal qilgan holda, o'zaro murojaat shakllarini tanlaydilar va bu bilan har ikki taraf o'zaro aloqada ijtimoiy tomonlarini nomoyon qiladilar.

O'zbek tilshunosligida murojaat shakllarining o'ziga xos xususiyati, turlari hamda vazifalarini aniqlashda eng asosiy tadqiqotlar Z Akbarovanning "O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi" va N.Ahmedovanning "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi" nomli nomzodlik dissertatsiyalari hisoblanadi. Z. Akbarova "O'zbek tilida murojaat dadlari va shakllari ularning lisoniy tadqiqi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida murojaatlarning ijtimoiy mohiyatini sotsiolingvistik jihatdan o'rgangan N.Ahmedova esa "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida murojaatlarni semantik jihatdan o'rganib, undalma nomi ostida ko'plab turlarini keng yoritgan. Murojaat birliklarning semantik-konnotativ tomonini misollar asosida izohlab, ichki guruhlariga bo'lgan.

Murojaat shakllarini ijtimoiy-lisoniy jihatidan tahlil qilganda, u adresant va adresat o'rtasida aloqani vujudga keltirish bilan bir qatorda, suhbatning qanday davom etishini, kommunikantlarning bir-biriga bo'lgan turli munosabatini kasbi, mavqeyi, yoshi, jinsi, shu bilan birga, milliy madaniyatini ham namoyon etadi.

"Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qollaniladigan, o'zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, ozida turlicha konnotativ ma'nolarni, semantik "ohanglarni" tashiydigan o'tkir va ta'sirchan vositadir"

Inson tashqi olam bilan, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib bog'lansa, faqat til orqali aloqaga kirishadi, aloqaga kirish imkoniga til tufayli ega bo'ladi, tashqi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-falsafiy, ruhiy-ma'naviy dunyo mazmun-mohiyati bilan ham til tufayli tanishadi. "Murojaat" so'ziga izohli lug'atda shunday ta'rif beriladi ko'rib chiqish, taqqoslash, biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish, birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq. Qayd qilingan ma'nolardan "birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq ma'nosini adresant va adresat nutqida namoyon bo'lish vazifasini kuzatib, ularning ijtimoiy-lisoniy va boshqa jihatlardan tasniflash asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Ko'rinib turibdiki, murojaat, asosan, kommunikantlar o'rtasida tinglovchi diqqatini tortish uchun xizmat qiladi.

She'riyatda atov gaplarning qo'llanishi: She'riy matn tilida atov gaplar eng faol ishlatiladigan sintaktik vositalardan biridir. Buning asosiy sababi – atov gaplarning ta'sirchanlik, tasviriylilik, emotsionallik va pauza yaratish imkoniyatiga egaligidir.

1. Tasviriylilikni kuchaytirish . She'riyatning asosiy vazifalaridan biri – badiiy manzarasini yaratish. Atov gaplar manzaraning yirik-yirik bo'laklarini ajratib, kadr-kadr tasvir beradi. Misol: Qorong'u tun. Yulduzlar jimjit. Bu yerda "Qorong'u tun" atov gap sifatida manzara kirish kadrini hosil qiladi. Atov gaplar she'riy nutqda tasvirni segmentlash, ya'ni tasvirni mazmun bo'laklariga ajratish funksiyasini bajaradi.

2. Emotsional urg'u berish. She'riyat hissiyotga tayanadi. Atov gaplar aynan shu emotsiyani keskin va ixcham tarzda berishga xizmat qiladi. Misol: Hijron. Ko'ksimda yongan alam. Atov gap ("Hijron") – emotsional detonator ro'lida. Bu jarayon ekspressiv sintaksisning bir ko'rinishi bo'lib, atov gaplar intonatsion kuchaytirgich vazifasini bajaradi.

3. Pauza va ritm yaratish. She'r musiqiylikka ega. Atov gaplar esa she'r ichida pauza yaratadi. Misol: Bahor. Yurakda yana bir hayajon. Pauza – she'riy matnda ritmik strukturaning muhim elementi. Atov gaplar orqali shoir ritmik nafas yaratadi.

4. Ta'kidni kuchaytirish. Atov gaplar she'riyatda muhim fikrni yoki timsolni ajratib ko'rsatadi. Misol: Ona! Barcha mehrning boshida sen. Atov gap (Ona!) – she'rning ma'no markazini belgilaydi.

5. Ramziy obraz yaratish. She'riyatda obrazlar ko'pincha ramziy bo'ladi. Atov gaplar obrazlilikni markazlashtiradi. Misol: Tun. Ko'nglimda qorong'ilik. Bu yerda "Tun" obraz orqali ruhiy holatning ramziga aylangan.

Usmon Azim she'riyati o'zining samimiy, lirik, falsafiy va dramatik ohangi bilan ajralib turadi. Uning poetikasida murojaat birliklari va atov gaplardan alohida emosional va sintaktik yukni bajaradi. Shoir murojaatlarni o'quvchi bilan lirik qahramon o'rtasidagi masofani qisqartirish, kayfiyat yaratish, dramatismni oshirish va mazmun markazini ajratish uchun mahorat bilan qo'llaydi. U murojaatni inqiroz momentida, ya'ni hissiyot eng kuchli chog'da qo'llaydi. Tabiatga murojaat qilar ekan, uni lirik suhbatdoshga aylantiradi. Abstrakt tushunchalarni jonlantirib, ularga ruhiy-hayotiy ma'no yuklaydi. She'rda birinchi misrani ko'pincha murojaat birligi bilan boshlaydi — bu uslubiy imzo. Murojaatlar orqali dialogik-falsafiy sintaksis shakllanadi. Bu fikrlarga misol qilib shoirning bir nechta she'rlarini ko'rishimiz mumkin.

Do'st

Do'st, kelsang-chi!

Tegramda kuz.

Ho'ngramoq payti yetdi.

Qayga ketdi yashil nufuz,

Bahorlar qayga ketdi?!

Satr-satr she'r yurakda,

Tuzolmayman baytini...

Bu xazonrez yakka-yakka

"Oh" urmoqning paytimi?

Bir kimsa yo'q.

Kuzak to'zg'in

Yo'lni barbod etgandir –

Yig'lab-siqtab aziz do'stim

Yuragiga ketgandir.

Yurak

Kuzak...

Buncha tez?

Yurak –

Xazonrez.

Oh, shamol,

Shamol!..

Alvido!..

Zavol.

Yig'lama, chorbog',

Men endi tuproq.

Jonga berib tin,

Bahoringga qayt,

Meni simirsin,

Ildizingga ayt!

Xulosa.Usmon Azim she'riyatida murojaat birliklari va atov gaplar : emotsional-ekspressiv vosita,lirik subyektning ichki monologi,dialogik-poetik struktura, obraz markazlovchi element, dramatik ritmni boshqaruvchi vosita,falsafiy fikrlashning til shakli sifatida namoyon bo'ladi.Shoir murojaat birliklarini she'ning markaziy xalqasi sifatida qo'llaydi va ular orqali poetik matnga samimiylik, chuqurlik, dramatism va jonlilik baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova. D. . (2025). Murojaat birliklarining madaniyatlararo muloqotdagi o'ziga xos jihatlari.
2. Amonova, M. . (2025). Atov gaplar va ularning qo'llanishi.
3. Azim, U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, turli yillar.
4. Azim, U. Ko'ngil ko'chalari. – Toshkent: Yozuvchi, 1999.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Usmon_Azim.